4-ŞÖBA · QIŞLOQ XÖJALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRIŞ

ÇORVAÇILIKDA BUGUNGI KUNDAGI GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNING EKOLOGIK-AXLOQIY YEÇIMLARI

Sultanmuratov Oğabek, Saparov Quwat, Yoʻldashova Iroda
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistrantlari
Ilmiy rahbar: Xolmuratov Ikrom- SDVMÇBU Nukus filiali dotsenti, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)

DOI
10.66073/ReFocus-Conf/1311144
NASHR SANASI
13.11.2026 · Nukus
SAHIFALAR
671–673
NASHR HAMKORI
Research Focus
ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Sultanmuratov O., Saparov Q., Yoʻldashova I., Xolmuratov I. Çorvaçilikda bugungi kundagi global muammolar va ularning ekologik-axloqiy yeçimlari // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 671–673. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311144

ANNOTATSIYA *Uşbu maqolada globallaşuv va iqlim oʻzgarişi şaroitida çorvaçilik sohasida yuzaga kelayotgan global ekologik, iqtisodiy va axloqiy muammolar tahlil qilingan. Parnik gazlari emissiyasi, suv va yer resurslarining tanqisligi, bioxavfsizlik hamda hayvonlar farovonligi (animal welfare) kabi masalalarga alohida eʼtibor qaratilgan. Muammolarni hal etişda Barqaror rivojlaniş maqsadlari va "HEÇ" (Human, Environment, Economy, Culture) tamoyillari doirasidagi innovatsion hamda kreativ yeçimlar ilgari surilgan.*

KALIT SOʻZLAR *Çorvaçilik, global muammolar, issiqxona effekti, metan emissiyasi, suv tanqisligi, bioetika, barqaror rivojlaniş, innovatsion texnologiyalar.*

KIRIŞ: Bugungi kunda dunyo aholisining tez surʼatlar bilan oʻsişi oziq-ovqat mahsulotlariga, ayniqsa, goʻşt, sut va boşqa çorvaçilik mahsulotlariga boʻlgan talabni keskin oşirmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qişloq xoʻjaligi taşkiloti (FAO) maʼlumotlariga koʻra, asrning oʻrtalariga borib goʻşt isteʼmoli yana 70% ga oşişi prognoz qilinmoqda. Biroq, agrosanoat majmuasining eng yirik tarmoği boʻlgan çorvaçilik bugungi kunda nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlovçi omil, balki sayyoramizdagi eng jiddiy global muammolarni keltirib çiqaruvçi va ulardan aziyat çekuvçi sohaga aylanib ulgurdi. Inson ва tabiat munosabatlarining buzilişi çorvaçilik sektorini tubdan isloh qilişni va sohaga kreativ yondaşuvlarni joriy etişni talab qilmoqda.

2. ÇORVAÇILIKDAGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR

Iqlim oʻzgarişi va Parnik gazlari emissiyasi. Çorvaçilik global issiqxona effekti (greenhouse effect) şakllanişida juda katta uluşga ega. Dunyo miqyosida insoniyat faoliyati natijasida ajralib çiqadigan barça parnik gazlarining qariyb 14.5% – 16.5% aynan çorvaçilik hisobiga toʻğri keladi. Bu oʻrinda eng xavfli gaz — **metan (\(Ç_{4}\))** hisoblanadi. Yirik şoxli mollarning hazm qiliş jarayoni (enterik fermentatsiya) va goʻng тоʻпланиши натижасида

atmosferaga ajralib çiquvçi metan gazi karbonat angidriddan (\(CO_{2}\)) 28 barobar kuçliroq issiqlik uşlab qoliş xususiyatiga ega. Бу эса global iqlim isişini yanada tezlaştirmoqda.

2. Suv va Yer resurslarining haddan taşqari sarflanişi. Çorvaçilik sanoati sayyoramizdagi çuçuk suv zaxiralarining eng yirik iste'molçilaridan biridir. Masalan, 1 kg mol go'ştini yetiştiriş uçun o'rtaça 15 000 litr suv sarflanadi (bunga çorvaning içişi, yem-xaşak yetiştiriş va qayta işlaş xarajatlari kiradi). Suv tanqisligi global miqyosda ortib borayotgan bugungi davrda bunday ekstensiv sarf-xarajat barqarorlik prinsiplariga ziddir. Bundan taşqari, çorva uçun yaylovlar va yem-xaşak (soya, makkajo'xori) maydonlarini kengaytiriş maqsadida dunyodagi eng qimmatli o'rmonlar (masalan, Amazoniya o'rmonlari) ommaviy ravişda kesib taşlanmoqda. Bu esa biologik xilma-xillikning (biorang-baranglik) yo'qolişiga sabab bo'lyapti.

3. IJTIMOIY-AXLOQIY VA SOĞLIQNI SAQLAŞ MUAMMOLARI

1. Antibiotiklarga çidamlilik (Antibiotic Resistance). Zamonaviy sanoatlaşgan çorvaçilik korxonalarida hayvonlarning tez vazn yiğişi va tor kataklarda kasallik tarqalmasligi uçun tonnalab antibiotiklar qo'llaniladi. Dunyodagi barça antibiotiklarning qariyb 70% dan ortiği tibbiyotda emas, ayniqsa çorvaçilikda işlatiladi. Bu oqibatda go'şt ва sut orqali inson organizmiga o'tadigan zaharli qoldiqlar va bakteriyalarning mutatsiyaga uçraşi, insoniyat uçun eng oddiy infeksiyalarni ham davolab bo'lmaydigan global tibbiy inqirozni (superbakteriyalar paydo bo'lişini) keltirib çiqarmoqda.

2. Hayvonlar farovonligi (Animal Welfare) va Bioetika. Kreativ konservatizm va zamonaviy ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari çorvaçilikda hayvonlarga şunçaki "işlab çiqariş vositasi" yoki "tovar" deb qaraşni keskin qoralaydi. Yirik gigant fermalarda hayvonlarning tabiiy harakatlaniş erkinligidan mahrum etilişi, tor va qoronği kataklarda muttasil stress ostida saqlanişi umuminsoniy axloq normalariga ziddir. Aynan mana şu axloqiy muammo bugungi zamonaviy jamiyatlarda go'şt mahsulotlaridan voz keçiş (veganizm) va alternativ oziq-ovqat sanoatining o'sişiga kuçli turtki bermoqda.

4. KREATIV VA INNOVATSION YEÇIMLAR (HEÇ MODELI ASOSIDA)

Çorvaçilikni inqirozdan olib çiqiş uçun **HEÇ (Human, Environment, Economy, Culture)** tamoyillari doirasida quyidagi kreativ yondaşuvlarni amaliyotga joriy etiş lozim:

- **Ratsionni o'zgartiriş (Ekologik yeçim):** Yirik şoxli mollarning yemiga ma'lum turdagi dengiz suvo'tlari (masalan, *Asparagopsis taxiformis*) yoki maxsus bio-qo'şimçalarni qo'şiş orqali hayvonlar organizmidan metan gazi ajralib çiqişini 80-90% gaça kamaytirişga erişiş mumkin.
- **Aylanma (Circular) iqtisodiyot:** Çorvaçilik çiqindilarini (go'ng) şunçaki atrof-muhitga taşlamasdan, ulardan **biogaz** ва yuqori sifatli organik o'ğitlar oliş tizimini yaratiş. Bu ham energiyani tejaydi, ham atmosferaga gazlar uçişini to'xtatadi.
- **Aqlli çorvaçilik (Smart Livestock Farming):** Har bir hayvonning bo'yniga yoki quloğiga maxsus datçiklar (IoT) o'rnatiş. Sun'iy intellekt datçiklar yordamida hayvonning tana harorati, harakati va ozuqa yeyişini tahlil qiladi. Kasallik boşlanişini dastlabki soatlarda aniqlab, antibiotiklarni ommaviy emas, faqat o'şa bitta hayvonga nuqtali (aniq) qo'llaş imkonini beradi.

 https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311144

- **Muqobil oqsillar sanoati (Kreativ innovatsiya):** Laboratoriya şaroitida hayvon hujayralaridan yetiştiriladigan "toza go‘şt" (cultivated meat) yoki o‘simlik asosidagi muqobil oqsillar işlab çiqarişni rivojlantiriş. Bu usul ekologiyaga zarar yetkazmaydi, suvni 95% gaça tejaydi va axloqiy muammolarga to‘liq barham beradi.

5. XULOSA

Çorvaçilikdagi bugungi global muammolar insoniyatdan iste’molçilik kayfiyatidan voz keçişni va sohaga yuqori tahliliy bilimlar hamda mas’uliyat bilan yondaşişni talab qilmoqda. Sanoatni raqamlaştiriş, bioetika qoidalariga rioya qiliş va ekologik toza texnologiyalarni joriy etiş orqali çorvaçilikni kelajak avlodlar uçun xavfsiz, barqaror va insonparvar tarmoqqa aylantiriş bugungi kunning eng muhim strategik vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO. (2006). *Livestock’s Long Şadow: Environmental Issues and Options.* Rome.
2. Vernadskiy V. I. (1926). *Biosfera.* Leningrad.
3. BMT Barqaror rivojlaniş maqsadlari hisoboti (2025/2026).